

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA SUG‘URTA SHARTNOMASINING YURIDIK TABIATI

Pirimov Mansurali Suyun o‘g‘li

“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi”

aksiyadorlik jamiyatining Yuridik departamenti yetakchi yuriskonsulti
mansurprimov2097@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada sug‘urta shartnomasining yuridik tabiati muhokama qilinadi. Sug‘urta shartnomasi fuqarolik-huquqiy tartibga solishning eng muhim vositalaridan biridir. Shartnomaning asosiy ahamiyati qonun doirasida tomonlarning xatti-harakatlarini tartibga solish, ularning mumkin bo‘lgan va tegishli xatti-harakatlari chegaralarini ko‘rsatish, shuningdek tegishli talablarni buzish oqibatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik kodeksi, sug‘urta shartnomasi, sug‘urta shartnomasi turlari, sug‘urta mukofoti, sug‘urta qildiruvchi, shartnoma tomonlarining himoyasi, sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi, sug‘urta hodisasi, sug‘urta tovonni, sug‘urta mukofoti.

АННОТАЦИЯ: В статье рассмотрены юридическая природа договора страхования. Договор страхования один из важнейших и наиболее важных инструментов гражданско-правового регулирования. Основное значение договора сводится к регулированию в рамках закона поведения людей путём указания на пределы ихвозможного и должного поведения, а равно и последствию нарушения соответствующих требований.

Ключевые слова: Гражданский кодекс, договор страхования, страховые премии, защита и интересы граждан, страхователь, страховщик, страховая выплата, страховой взнос.

ABSTRACT: In article are considered the legal nature of the contract of insurance. Contract of insurance one of the most important and most important instruments of civil regulation. Major importance of the contract is reduced to regulation within the law of behavior of people by the instruction on limits of their possible and due behavior, and is equal also a consequence of violation of relevant requirements.

Keywords: Civil Code, insurance contract, types of insurance contract, insurance premium, insurer, protection of contracting parties, insurer, insurer, Insurer, Insurance event, insurance compensation, insurance premium.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida majburiyatlarning paydo bo‘lishi sabablari orasida shartnomalar asosiy o‘rinni egallaydi. Shartnomalar ularning ishtirokchilari o‘rtasida huquqiy aloqani o‘rnatadi, zarur harakatlarni amalga oshirish tartibi va ketma-ketligiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi, bir qator umumiy prinsiplarni va fuqarolik huquqiy munosabatlarini amalga oshiradi. Shartnoma bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishda alohida o‘rin tutishi lozim, chunki ishlab chiqarish ayirboshlash davlat organlarining ma‘muriy harakatlariga emas, balki shaxslarning manfaatlarini va tashabbusiga bog‘liq.

Bunday holda shartnoma nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, balki sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shartlarini, ularning barcha harakatlarining tartibi va ketma-ketligiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan fuqarolik-huquqiy

munosabatlarni tartibga solishning eng muhim vositasi bo'lgan normativ hujjatning xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Shartnoma fuqarolik majburiyatining mazmunini shakllantirishga bevosita ta'sir qiladi, bu shartnomaning mazmuniga bog'liq. Shartnomaning mazmuni uning shartlari to'plamidir. Shartnoma ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari fuqarolik majburiyatining mazmunini tashkil etadi. Shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarga, agar fuqarolik kodeksining shartnomalarga oid maxsus normalarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Sug'urta shartnomasi — bu sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida yozma yoki elektron shaklda tuzilgan bitim bo'lib, sug'urta qildiruvchi unga muvofiq sug'urta mukofotini (sug'urta badalini) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda, muddatlarda va hajmda to'laydi hamda sug'urta shartnomasida yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi, sug'urtalovchi esa sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sug'urta shartnomalari sug'urta mukofoti to'langan vaqtdan boshlab kuchga kirishi belgilangan, ammo bunday shartnomalarning kuchga kirishini boshqa asoslarga bog'liq qilib qo'yilishi ham mumkin. Sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining sug'urta qildiruvchining qarshi majburiyatlari bo'yicha majburiyatini o'z ichiga olgan ikki tomonlama shartnomadir. Shu bilan birga, sug'urta shartnomasining har bir tomoni boshqa tomonga nisbatan ma'lum huquq va majburiyatlarga ega. Shuningdek, Krivosheeva V. S. ning fikri shundayki, sug'urta huquqiy munosabatlarning xususiyatlarini belgilaydigan asosiy majburiyat (sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi oldida sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini bo'yicha) va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'lash bo'yicha ikkinchi darajali majburiyati mavjudligi, bu birinchisining amalga oshirilishini ta'minlaydi (1. b. 45).

Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud — sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda — birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi. Shuningdek, Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llanishga haqli. (O'zRes FKning 927-, 3,4-q).

O'zRes FKning 928-moddasining Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi — bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu sug'urta usuli sug'urta qildiruvchi tomonidan muntazam ravishda jo'natilgan yoki olingan bir xil turdagi yuklarni sug'urtalash uchun qulaydir. Shu bilan birga, sug'urta

1 Бельх В.С., Кривошее И.В. Страхование. — М.: Норма, 2001. — С. 146 – 158

qildiruvchining majburiyatlari sug'urta mukofotini to'lashdan tashqari, sug'urtalovchiga har bir alohida tovarlar partiyasi to'g'risida shartnomada nazarda tutilgan ma'lumotlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Sug'urta qildiruvchining so'roviga binoan sug'urtalovchi unga Bosh polisdan tashqari har bir tovar partiyasi uchun polislar berishga majburdir, bunda bosh va maxsus polislar shartlari qarama-qarshi bo'lgan taqdirda, bosh polis shartlari ustuvor hisoblanadi. Bosh polisdan foydalangan holda sug'urtani tashkil etish usuli sug'urta qildiruvchiga sug'urtalovchi bilan barqaror iqtisodiy munosabatlarni o'rnatishga va bir xil turdagi xatarlarni sug'urtalash tartibini soddalashtirishga imkon beradi. Bosh polis shartnomaning barcha muhim shartlarini, tomonlar o'rtasidagi hisob-kitob shartlarini va sug'urta qildiruvchi mulkning har bir partiyasi to'g'risida hisobot berishi kerak bo'lgan ma'lumotlar ro'yhatini o'z ichiga olishi kerak. Maxsus har bir holat uchun alohida beriladigan polisining mazmuni bosh polisga mos kelmasa, alohida maxsus polisiga ustunlik beriladi²(2. b. 55).

Sug'urta mukofotlarini yig'ish sug'urta tashkilotlari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta xavfining yo'qolishi sababli bekor bo'lgan bo'lsa (masalan, mol-mulk toshqindan sug'urtalangan bo'lsa, olovdan nobud bo'lsa), shuningdek, agar shartnomani bekor qilish sug'urta xavfini sezilarli darajada oshiradigan holatlar yuzaga kelsa, sug'urtalovchi sug'urta mukofotini sug'urta qildiruvchiga qaytarilishi mumkin, bu sug'urta shartnomasi amal qilgan davr uchun mukofot miqdorini olib tashlagan holda amalga oshiriladi. Sug'urta shartnomasi istalgan vaqtda buni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta qildiruvchining tashabbusiga binoan bekor qilingan taqdirda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi, ammo sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi bekor qilingan paytgacha to'lash muddati kelmagan sug'urta mukofotlarini to'lashdan ozod qilinadi³(3. b. 45).

Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi sug'urta tovonini amalga oshiradi. Amalda, sug'urta to'lovlarini asossiz ravishda olishga urinayotgan sug'urta qildiruvchilarning vijdonsiz xatti-harakatlari holatlari tez-tez uchraydi. Shu munosabat bilan, qonun-hujjatlari sug'urtalovchini sug'urta to'lovi majburiyatidan to'liq yoki qisman ozod qilish holatlarini nazarda tutadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni quyidagi hollarda rad etishga haqli:

- *sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar, shu jumladan Fuqarolik kodeksning 948 va 950-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda;*
- *sug'urta shartnomasi Fuqarolik kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganda;*
- *sug'urtalovchi Fuqarolik kodeksning 951 — 954-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sug'urta tovonini yoki sug'urta puli to'lashdan ozod qilinganda;*

² Абрамов В.Ю. Страхование: теория и практика. - М., 2007. - С. 55.

– sug'urtalovchi Fuqarolik kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida yoxud sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi holatlarini tekshirib ko'rishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga to'sqinlik qilgani tufayli sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risida da'vo qo'zg'atganida.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug'urta qiymatining bir qismi miqdorida sug'urtalangan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo'shimcha sug'urta qilishga, shu jumladan boshqa sug'urtalovchida sug'urta qilishga haqli, ammo barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha umumiy sug'urta puli sug'urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim(FKning 937-m).

Fuqarolik kodeksning 938-moddasida nazarda tutilgan qoidalar sug'urta puli ayni bitta mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini ikki yoki bir necha sug'urtalovchida sug'urta qilish (qo'shaloq sug'urta) natijasida sug'urta qiymatidan oshib ketgan taqdirda ham tegishincha suratda qo'llaniladi.

Qonunchilikda birgalikdagi sug'urta shartnomasi ham mavjud bo'lib, har qanday obyektning birgalikda sug'urtalashda sug'urta kompaniyalari bitta sug'urta shartnomasini imzolaydilar, unda sug'urta shartlari bilan bir qatorda har bir sug'urtalovchining ushbu obyektning sug'urtalash bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilaydigan shartlar mavjud bo'ladi. Sug'urtalashda sug'urta qildiruvchiga har bir sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan xavf ulushiga qarab birgalikda yoki alohida sug'urta polisi berilishi mumkin. Har bir sug'urtalovchining javobgarlik ulushi u olgan mukofotga mutanosib ravishda belgilanadi(4. b. 116).

Qayta sug'urta shartnomalari ham qonunchilikda mavjud. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi. Uchinchi darajali va undan keyingi xatarlarni joylashtirishning ushbu operatsiyasi retrosessiya deb nomlandi.

Xatarlarni retrosessiyaga o'tkazadigan qayta sug'urtalovchi retrotsedent deb ataladi. Xatarlarni qayta sug'urtalash nafaqat sug'urta portfelini bir qator yirik sug'urta hodisalari yoki hatto bitta halokatli holatlarning ta'siridan himoya qilishga, balki bunday holatlar uchun sug'urta tovonining miqdorini to'lash bitta sug'urta kompaniyasiga og'ir yuk bo'lib qolmasligiga, balki qayta sug'urtalashda ishtirok etganlarning barchasi tomonidan birgalikda amalga oshirilishiga olib keladi(5. b. 35).

XULOSA

Qonunchilikda sug'urta munosabalarini tartibga solishga doir bir bo'shliq mavjud. Xususan, kredit shartnomalari, jumladan avto kredit yoki ipoteka shartnomalari kredit qaytmaslik xavfi

bo'yicha sug'urta qilinganida va qarzdor kredit mablag'larini muddatidan oldin so'ndirgan holatlarda agarda sug'urta shartnomasida boshqa tartibga soluvchi shartlar keltirilmagan bo'lsa, to'langan mukofotning qay darajada qaytarilishi yoki qaytamarilmasligini tartibga solishni nazarda tutuvchi qoidalar qonunchilikda atroflicha keltirilmagan. Ammo, amalda muddatidan oldin so'ndirilgan shartnomalar bo'yicha ayni bir xil holatlar bo'yicha ham sug'urta mukofotlari sug'urta qildiruvchiga qaytarilishi bo'yicha turlicha amaliyotlar uchrab turadi. Shu sababli, qonun-hujjatlaridgi bu bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji mavjud.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 11.09.2024 (online manba: <https://lex.uz/docs/-180552>)
2. Абрамов В.Ю. Страхование: теория и практика. — М.: ВолтерсКлувер, 2007.
3. Белых В.С., Кривошеев И.В., Митричев И.А. Страхование в России. М.: Норма, 2009. — С. 45
4. Беспалов Ю.Ф., Якушев П.А., Гражданское право в схемах. — М., 2014. 5. Большая советская энциклопедия. — М.: Сов.энциклопедия, 1976.
6. Брагинский М.И. Договор страхования. — М., 2000. — С. 45.
7. Дедиков С.В. Субъектный состав страхового правоотношения в системе ОСАГО // Экономические науки. — 2010. — № 64. — С. 116.
8. Керимбаева Г.А. Учебное пособие страхования КР. — Б., 2012.
9. Страхование в Кыргызской Республике: Опыт, проблемы и перспективы развития. сборник материалов проекта ТАСИС — Бишкек, 2005. — с. 200.
10. Шахов В. В. Страхование: Учебник для вузов. — М., 2006. — С. 63.12. Шихов А.К. Страхование. — М., 2001. — С. 35.